

RISHTON TUMANI DEMOGRAFIYASI

Abdinazarova X. O.

PhD dotsent, QDPI

Abdinazarov B. X.

katta o‘qituvchi, Qo‘qon Tibbiyot texnikumi

Umarova Umidaxon

talaba, QDPI

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Rishton tumani aholisi va uning demografik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Unda 2018-2020 yildagi tuman aholisi demografik o‘zgarishlari geogrifik tahlil qilingan va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aholi, aholi soni, aholi zichligi, demografiya, Shahar va qishloq aholisi, demografik jarayonlar, aholining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi.

ДЕМОГРАФИЯ РИШТОНСКОГО РАЙОНА

Аннотация: В данной статье изучено население Риштонского района Ферганской области и его демографические показатели. В ней были географически проанализированы демографические изменения населения района в 2018-2020 годах и сделаны выводы.

Ключевые слова: численность населения, численность населения, плотность населения, демография, городское и сельское население, демографические процессы, распределение населения по возрастным группам.

DEMOGRAPHY OF RISHTON DISTRICT

Annotation:

This article studies the population of the Rishton district of the Fergana region and its demographic indicators. It geographically analyzed the demographic changes in the population of the region in 2018-2020 and drew conclusions.



Key words: population size, population size, population density, demography, urban and rural population, demographic processes, population distribution by age groups.

Farg‘ona viloyati ma‘muriy-hududiy birligi hisoblangan Rishton tumani 9 yanvar 1967 yilda tashkil topgan. U geografik o‘rniga ko‘ra shimoldan Bag‘dod, janubi-sharqdan Oltiariq, g‘arbdan O‘zbekiston va Uchko‘prik tumanlari, janubdan Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Rishton tumani hududi (yer maydoni) 0,307 ming kv.km ni tashkil etadi.

Tabiati. Tuman hududi Markaziy Farg‘ona cho‘lining janubida, So‘x daryosi va Katta Farg‘ona kanali bo‘yida joylashgan. Hududi, asosan, tekislikdan iborat. Foydali qazilmalardan neft, gaz, soz tuproq, shag‘al kabilar uchraydi. Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o‘rtacha harorati $-6,7^{\circ}$, eng past harorat esa -27° , iyulning o‘rtacha harorati $+23,6^{\circ}$, eng yuqori harorat esa $+42^{\circ}$ ni tashkil qiladi. Hududga yiliga 180 mm yog‘in tushadi. Xo‘jaliklar va aholi yerlari So‘x daryosi va Usmon Yusupov nomli Katta Farg‘ona, Katta Andijon kanallaridan sug‘oriladi. Tuproqlari qo‘ng‘ir bo‘z tuproq va o‘tloqi tuproqlardan iborat, ayrim joylarda sho‘rtuproq uchraydi. O‘simliklardan sho‘ra, shuvoq, yantoq, miya, oq bosh, yulg‘un, qiyoq va boshqa o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo‘ri, tulki, quyon, yumronqoziq; parrandalardan kaklik, bedana, tustovuq, zog‘cha, qarg‘a, to‘rg‘ay, sassiqpopishak, qaldirg‘och; sudraluvchilardan o‘q ilon, chipor ilon, kaltakesak; kemiruvchilardan kalamush va boshqa uchraydi.

Aholisi. Rishton tumanining doimiy aholi soni 2020 yil, 1 yanvar holatiga ko‘ra 201,1 ming kishi (1-jadval). Tumanda hozirgi kunda 1 ta shahar, 41 ta aholi punktlari, 69 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari va 53,1 ming ta oilalar mavjud. Aholisi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, tojik, qirg‘iz, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillaridan iborat. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km² ga 655 kishi.

1-jadval 2018-2020 yillarda Rishton tumani aholi soni dinamikasi	2018 y.		2019 y.		2020 y.		2020 yil 2018 yilga nisbatan farqi	
	Soni	ulushi, %	Soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	Soni	O‘shish sur‘ati, %
Jami aholi soni	194,0	100,0	197,4	100,0	201,1	100,0	7,1	103,6
Shu jumladan:								
Shahar	124,8	64,4	126,8	64,2	128,9	64,1	4,1	103,3
Qishloq	69,2	35,6	70,6	35,8	72,2	35,9	3,0	104,3



Jadval Rishton tumani statistika bo‘limi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra Rishton tumanida 2018 yilda 194,0 ming aholi istiqomat qilgan bo‘lsa, 2020 yilda 201,1 ming kishiga yetgan. 2020 yilda 2018 yilga nisbatan aholi 7,1 ming kishiga ko‘paygan yoki 103,6 foizga o‘sgan. Bunda Shahar aholisi soni 2018 yilda 124,8 ming kishini, qishloq aholisi 69,2 ming kishini tashkil etgani holda, 2020 yilda shahar aholisi soni 128,9 kishiga, qishloq aholisi soni esa 72,2 ming kishiga yetgan. O‘rganilayotgan davrga nisbatan shahar aholisi 103,3 foizga va qishloq aholisi 104,3 foizga o‘sganligini kuzatish mumkin.



1-rasm. Rishton tumani aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi (yil boshiga; jami aholiga nisbatan, %da)

2018-2020-yillar oralig‘ida aholi sonining milliy tarkibida o‘zbek millati ulushi oshishi kuzatilgan, ya’ni 2018-yildagiga nisbatan 88,9 % ga, ushbu holat etnik jihatdan ko‘pchilikni tashkil etgan o‘zbek millati orasidagi tug‘ilishlar soni ko‘pligi bilan izohlanadi. Shuningdek rus va boshqa millat vakillarining migratsion ko‘chishi va ulardagi tug‘ilish ko‘rsatkichlari pastligi kabi omillar ta’sirida ushbu millat vakillari ulushi kamayib bormoqda.

2018-2020 yillar oralig‘ida aholi sonining milliy tarkibida o‘zbek millati ulushi oshishi kuzatilgan, ya’ni 2018 yildagiga nisbatan 88,9 % ga, ushbu holat etnik jihatdan ko‘pchilikni tashkil etgan o‘zbek millati orasidagi tug‘ilishlar soni ko‘pligi bilan izohlanadi. Shuningdek rus va boshqa millat vakillarining migratsion ko‘chishi va ulardagi tug‘ilish ko‘rsatkichlari pastligi kabi omillar ta’sirida ushbu millat vakillari ulushi kamayib bormoqda.

Aholi o‘rtacha yoshi 2020 yil boshida 29,3 yoshni tashkil etgan, hamda bunda erkaklar o‘rtacha yoshi 28,8 ayollar erkaklarga nisbatan uzoqroq umr ko‘rayotganligi sababli ularning o‘rtacha yoshi 29,8 yoshni tashkil etgan va ayollarga nisbatan 1,0 yilga ko‘proq yashamoqda.



Tumanda 2019 yil mobaynida ayrim yosh guruhlarining jamiga nisbatan ulushi sezilarli o‘shishi kuzatildi: o‘tgan yildagiga nisbatan 7-13 yoshdagi aholi ulushi jamiga nisbatan 2,8 % ga, 61-70 yoshdagi aholi ulushi 11,2 %ga o‘ydi. Hamda aksincha, avvalgi yilga nisbatan 18-24 yoshdagi aholi ulushi sezilarli kamaydi va jamiga nisbatan 9,5 % ga farq berdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2020 yilning 1 yanvar holatiga tumanda doimiy aholi soni 201,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 3,7 ming kishiga yoki 1,9 % ga ўсди. Шу bilan birga, shahar aholisi soni 128,9 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 64,1 %), qishloq aholisi soni 72,2 ming kishini (35,9 %) tashkil etdi 2020 yil 1 yanvar holatiga tumandagi mehnatga layoqatli aholi soni tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermadi, ya’ni o‘shish suratlari barqaror qolganini ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval Rishton tumani aholisining yosh guruhleri bo‘yicha taqsimlanishi

	2018 y.		2019 y.		2020 y.	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	Soni	ulushi, %
Jami aholi soni	193 962	100,0	197 410	100,0	201 069	100,0
<i>Shu jumladan yoshlari, yosh</i>						
0-2	12 392	6,4	12 609	6,4	13 217	6,6
3-6	15 057	7,8	15 692	7,9	16 254	8,1
7-13	23 379	12,1	23 618	12,0	24 290	12,1
14-17	10 399	5,4	11 165	5,7	11 490	5,7
18-24	26 076	13,4	24 269	12,3	23 029	11,5
25-30	23 525	12,1	24 071	12,2	23 764	11,8
31-40	28 999	15,0	30 056	15,2	31 261	15,5
41-50	23 601	12,2	24 062	12,2	24 408	12,1
51-60	17 748	9,2	18 429	9,3	18 823	9,4
61-70	8 130	4,2	8 671	4,4	9 714	4,8
71 yosh va kattalar	4 656	2,2	4 768	2,4	4 819	2,4

Manba: Rishton tumani statistika bo‘mi ma’lumotlari

2020 yil 1 yanvar holatiga tug‘ilganlar soni 4 767 kishini tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga (4 527 kishi) nisbatan 240 taga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 23,9 promilleni tashkil qildi. 2020 yil 1 yanvar holatiga o‘lganlar soni 885 kishini tashkil qildi va 2019 yilning shu davriga (900 kishi) nisbatan 15 kishiga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil qildi.

Xulosa. O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda Rishton tumani aholisi soni, zichligi ortib bormoqda. Shuningdek, aholi tarkibida yoshlar va go‘daklar soni



ham ortishi kuzatilgan. Bu esa, kelajakda tumanda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yuzaga kelishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdinazarova, N. O. "ФАРҒОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ." Экономика и социум 3-2 (94) (2022): 351-356.
2. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." American Journal of Social and Humanitarian Research 3.11 (2022): 333-338.
3. Kh, Komilova N., and N. O. Abdinazarova. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." Экономика и социум 5-1 (84) (2021): 248-255.
4. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." Экономика и социум 9 (76) (2020): 3-7.
5. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 2.6 (2022): 135-140.
6. Komilova, N. Kh. "Abdinazarova Kh. O. Some theoretical aspects of the development of the chemical industry." European Science Review Austria Vienna (2019): 25-27.
7. Abdinazarova N.O. "ФАРҒОНА ИҚТИСОДИЙ РАЙОНИДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН КИМЁ САНОАТ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ГЕОГРАФИК ТАВСИФИ" Экономика и социум, no. 3-2 (94), 2022, pp. 351-356.
8. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan. Экономика и социум. Электронное периодическое издание Россия, г. Саратов 2020. № 9 (76)." 3-7.
9. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon. "Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 20 (2023): 56-60.
10. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abdinazarov Bunyodjon Khaliqnazarovich. "Application of Non-Standard Test Tasks in Teaching the Subject of "Lower Amu Darya Economic District"." Eurasian Journal of History, Geography and Economics 20 (2023): 61-64.
11. <https://stat.uz/uz>

